

### 13. Ko‘p xonali sonlarning o‘qilishi va yozilishi



Yondosh mavzu:  
Navoiy viloyati

Sinflar va xonalar,  
10, 100 ga ko‘paytirish

1. Sonlarni jadvalga yozing va ularni o‘qing.

*Navoiy viloyatida aholi soni 1 004 500 nafar. Ularning 498 100 nafari shaharlarda, 458 400 nafari qishloqlar va shaharchalarda yashaydi.*

Millionlar			Minglar			Birliklar		
Yuzlar	O‘nlar	Birlar	Yuzlar	O‘nlar	Birlar	Yuzlar	O‘nlar	Birlar

2. Sonlarni sinflarga ajrating va ularni o‘qing.

534 504 569  
8 300 022

23 423 767  
50 000 002


67 082 039  
208 003 190

3. Bitta yuzlikda nechta o‘nlik va nechta birlik bor?


Bitta minglikda nechta birlik, o‘nlik, yuzlik bor?




1 birlik



1 o‘nlik



1 yuzlik



1 minglik

5 ta minglikda necha o‘nlik bor? 3 ta minglikda-chi?

10 ta minglikda-chi?

4 ta minglik va 6 ta yuzlikda necha o‘nlik bor?

## 13. Ko‘p xonali sonlarning o‘qilishi va yozilishi



**1 o‘nlik = 10 birlik**

**1 yuzlik = 10 o‘nlik = 100 birlik**

**1 minglik = 10 yuzlik = 100 o‘nlik = 1 000 birlik**

**1 million = 1 000 minglik = 1 000 000 birlik**



4. Daftaringizga ko‘chirib yozing va bo‘sh joylarni to‘ldiring.

6 yuzlik = ... birlik      34 yuzlik = ... birlik

7 minglik = ... birlik      27 minglik = ... birlik



5. Ko‘paytirishni bajaring. Hosil bo‘lgan sonlarni o‘qing.

$$90 \cdot 100$$

$$17 \cdot 10\,000$$

$$25 \cdot 3\,000$$

$$200 \cdot 100$$

$$640 \cdot 100$$

$$2\,800 \cdot 70$$

$$300 \cdot 900$$

$$800 \cdot 7\,000$$

$$12\,300 \cdot 200$$



6. Toshkentdan Navoiyga “Sharq” poyezdida borish mumkin.

Chipta narxlari ekonom-klassga 98 000 so‘m, birinchi toifa vagon uchun 160 000 so‘m. Sayohatga borish uchun 2 nafar katta va 3 nafar boladan iborat oila har ikki holat bo‘yicha qancha pul to‘lashi kerak?

Birinchi toifa vagon narxi ekonom-klass vagoniga qaraganda qancha qimmatroq bo‘ladi?



7. Savollarga javob berish uchun ifodalar tuzing.

a) Muruntov konidan 2 yilda 100 t oltin qazib olindi. Agar qazib olish 75 yil davom etsa, bu kondagi oltin zaxirasi qancha?

b) 7 ta yuk mashinasida 28 tonna ruda olib chiqildi. 15 ta mashina bilan qancha ruda tashish mumkin?

### 13. Ko'p xonali sonlarning o'qilishi va yozilishi



8. Navoiy viloyatida qadimgi qoyatosh suratlari bo'lgan mashhur g'or bor.

Misollarni amallarning bajarilish tartibiga ko'ra yeching va bu g'or qanday atalishini bilib oling.



$$(27 \cdot 3 + 319) : 2 + (418 - (217 - 600 : 20)) + 67 \cdot 7$$

A 400

S 469

R 30

O 431

Y 900

S 81

I 231

M 187

Sh 200



9. 4, 6, 7 raqamlaridan uch xonali sonlar tuzing. Nechta son hosil bo'ldi? Qanday sonlar ko'proq chiqdi: juft sonlarmi yoki toq sonlarmi?



10. Visola poyezdning boshidan 17-vagonga, Malika esa oxiridan 9-vagonga chiqdi. Shunda qizlar qo'shni vagonlarda ketayotganlari ma'lum bo'ldi. Poyezdda nechta vagon bo'lishi mumkin?



11. a) Sonlarni sinflarga ajraring.

10 487 488

324 900 044

90 000 384

9 738 000

- b) Ifodalarning qiymatini hisoblang. Birliklar sinfining tagiga bitta chiziq, minglar sinfining tagiga ikkita chiziq, millionlar sinfining tagiga uchta chiziq chizing.

3 800 · 100

76 · 10 000

8 880 · 1 000



12. Navoiyga "Afrosiyob" poyezdida tez yetib olish mumkin. Arzon chipta 146 ming so'm turadi, qimmati esa undan 136 ming so'm ortiq. Ikkita qimmat chipta uchun qancha to'lash kerak bo'ladi?